

ITALYAN VA O'ZBEK TILLARIDA RANG KOMPONENTLI
IBORALARNING MADANIY-SEMANTIK TAHLILI

Sobirjonova Sevinch Olimjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

“Tarjima nazariyasi va amaliyoti italyan tili” fakulteti talabasi

sevinch26042008@gmail.com

+998918325558

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada italyan va o'zbek tillarida rang nomlari ishtirok etgan iboralar qanday ma'no berishi va bu ma'nolar madaniyatga qanday bog'langanligi tahlili taqdim etiladi. Tadqiqotda ikki tilda rang nomlari bilan yasaladigan iboralar ko'chma va lug'aviy ma'nolari qiyosiy o'rganiladi. Shuningdek, ushbu maqolada iboralarning badiiy adabiyot, publitsistika va og'zaki nutqdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: rang nomlari, iboralar, frazeologik birliklar, ko'chma ma'no, lug'aviy ma'no, madaniy tafovut, italyan tili, o'zbek tili, qiyosiy tahlil, lingvokulturologiya

ABSTRACT

This article presents an analysis of the meanings conveyed by idiomatic expressions containing color names in Italian and Uzbek, as well as how these meanings are connected to culture. The study comparatively examines the figurative and literal meanings of expressions formed with color names in both languages. In addition, the article highlights the significance of these expressions in fiction, journalism, and spoken language.



Keywords: color names, idiomatic expressions, phraseological units, figurative meaning, literal meaning, cultural differences, Italian language, Uzbek language, comparative analysis, linguoculturology

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлен анализ значений фразеологических выражений с названиями цветов в итальянском и узбекском языках, а также их связи с культурой. В исследовании проводится сопоставительное изучение переносных и прямых значений выражений, образованных с использованием названий цветов в обоих языках. Кроме того, в статье освещается значение данных выражений в художественной литературе, публицистике и устной речи.

Ключевые слова: названия цветов, идиоматические выражения, фразеологические единицы, переносное значение, прямое значение, культурные различия, итальянский язык, узбекский язык, сопоставительный анализ, лингвокультурология

Til har bir millatning ko'zgusi, har bir xalqning milliy tafakkuri tarixiy xotirasi va madaniy merosi hisoblanadi. Jamiyat dunyoqarashi, madaniyati, qadriyatlari va yashash tarzi tilda o'z aksini topadi. Til faqatgina muloqot vositasi bo'libgina qolmay, ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida ham inson hayotining turli jabhalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tilshunoslikda aksariyat holatlarda iboralarga frazeologik birlik sifatida qaraladi. V. V. Vinogradov ta'kidlaganidek, frazeologik birliklar tilning o'ziga xos boyligi bo'lib, ular xalqning dunyoqarashi va tarixiy tajribasini aks ettiradi. ¹Xususan, frazeologik birliklar, ya'ni idiomalar, iboralar, maqollar, matallar - har bir xalqning, millatning dunyoqarashi, mentaliteti, qadriyatlari, madaniy-estetik qarashlari va tarixiy tajribasining yaqqol ifodasidir. Bunday birliklar tarkibida esa ko'pincha rang nomlari ishtirok etib, milliy tafakkurning ramziy ifodasi sifatida alohida ahamiyatga ega. Bundan tashqari,

¹ Виноградов В. В. Вопросы фразеологии. – Москва, 1977.

frazeologik birliklar tarkibida rang nomlari ishtirok etishi ularning semantik maydonini yanada boyitadi hamda ularga kuchli eskpressivlik baxsh etadi.

Frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayoni, ayniqsa, ularning tarkibida rang nomlari ishtirok etgan hollarda, tarjimashunoslikning eng dolzarb va murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki har bir xalq madaniyatida ranglar muayyan ramziy ma'nolarni, mentalitetni, shuningdek, milliy-assotsiativ tasavvurlarni o'zida mujassam etadi. Shu bois ma'lum bir tilda ijobiy yoki aksincha salbiy ma'no anglatadigan frazeologik birlik boshqa bir tilda mutlaqo boshqa semantik va emotsional yuklamaga ega bo'lishi mumkin.

Ranglar orqali ifodalangan frazeologik iboralarni boshqa tilga adekvat tarzda ko'chirish uchun tarjimondan tarjimondan faqatgina so'zma-so'z tarjima qilish mahorati talab etilmaydi, balki u ikkala til tizimini, ularning semantik maydonini hamda madaniy kontekstini ham chuqur anglay olishi lozim. Tarjimon ikki xalqning madaniyatini solishtira oladigan darajada chuqur lingvokulturologik tafakkurga ega bo'lsagina, rang komponentli iboralarning asl mazmunini va uslubiy xususiyatlarini to'liq saqlab qola oladi. Masalan, italyan tilidagi "*essere verde d'invidia*" iborasi bevosita "*hasaddan yonmoq*" degan ma'noni bildirsa-da, bu iboradagi "*verde*" (yashil) rangi o'zbek madaniyatida hasad bilan emas, aksincha, hayot, baraka, yangilanish, bahor kabi ijobiy tushunchalar bilan bog'liq. Xuddi shuningdek, o'zbek madaniyatida oq rang poklik, yaxshilik, beg'uborlikni anglatgan bir paytda, italyan tilida ayrim kontekstlarda "*bianco*" muvaffaqiyatsizlik yoki natijasizlikni anglatadi. Masalan, "*notte bianca*" bevosita "*uyqusiz tun*", "*andare in bianco*" esa, "*muvaffaqiyatsizlikka uchramoq*" tarzida tarjima qilinadi. Bu esa semantik qarama-qarshilikka misol bo'la oladi. Bundan tashqari qizil rangni oladigan bo'lsak, o'zbek tilida qizil rang, asosan go'zallik, bayram, to'y kabi atamalar bilan aloqador bo'lsa, italyan tilida semantik qarama-qarshilikka uchraydi. Xususan, "*vedere rosso*" o'z navbatida, "*jahli chiqmoq*" shaklida o'zbek tiliga o'girilsa, "*essere in rosso*" "*qarzga botmoq*" ma'nosini beradi. Yana qo'shimcha ravishda *ko'k* rangni olaylik. Qiziqarli jihati shundaki, italyan tilida "*avere una fifa blu*" (moviy qo'rquv) iborasi mavjud. Ushbu



frazeologik birlikda rang intensivlikni, ya'ni insonning qo'rquvdan rangi o'chib, ko'kimtir tusga kirishini ifodalaydi. Qiyosiy ravishda, o'zbek madaniyati uchun esa, ko'k rang - bu osmon, ilohiylik va poklik ramzi hisoblanadi. Qadimdan o'zbek madaniyatida "ko'k" rangdagi kiyim yoki buyumlar himoyaviy kuchga ega deb qaralgan. Biroq, o'z navbatida, bu rang qisman ijtimoiy me'yordan chiqishni ham anglatadi. Masalan, "ko'kdan tushgandek" iborasi ijtimoiy muhitdan uzilgan, vaziyatni anglamaydigan shaxsga nisbatan ishlatiladi. Italiyada ko'k ijtimoiy yuksaklik, va tashqi hissiyot (qo'rquv), o'zbek madaniyatida esa ruhiy-ilohiy qadriyat va ijtimoiy begonalashuv o'rtasidagi qarama-qarshilikdir. "Rosa" ya'ni pushti rangning ushbu ikki tildagi qiyosi "romantika" va "reallikdan uzilish" o'rtasidagi farqni yaqqol ko'rsatadi. "Romanzo rosa" frazeologik birligini misol qilib keltiradigan bo'lsak, italyan tilida "pushti romanlar" (sevgi qissalari) atamasi juda keng tarqalgan va u o'quvchi uchun yengil, yoqimli va romantik tuyg'uni anglatadi. "Quote rosa" (pushti kvotalar) iborasi siyosatda ayollar ishtirokini ta'minlash uchun belgilangan o'rinlarni bildiradi. Bu yerda pushti rang ayollarning ijtimoiy faolliligi va teng huquqlilik belgisi sifatida ijobiy ma'noda ishlatiladi. O'zbek madaniyatida esa pushti rang idrokdagi xatolik jiddiylik yetishmasligi metaforasi hisoblanadi. "Pushti ko'zoynak" (reallikdan qochish) - ko'pincha hayotga nosog'lom optimizm bilan qarash, voqelikni bo'rttirib yoki noto'g'ri (ijobiy) talqin qilish ma'nosida keladi. Pushti ko'zoynak taqib yurgan odam - hayotning qiyinchiliklarini ko'rmaydigan yoki ko'rishni istamaydigan odam sifatida qaraladi. Ba'zi kontekstlardan pushti rang jiddiylikdan yiroqlikni ham anglatadi. Shu bois, bir xil rang bir madaniyatda ijtimoiy g'urur manbai bo'lsa, ikkinchisida kishini reallikdan uzuvchi yoki ijtimoiy qoliplarga sig'maydigan holat sifatida baholanishi mumkin.

Rang nomlari har bir xalqda turli xil assotsiatsiyalar uyg'otadi. Masalan, oq rangi o'zbek tilida poklik, halollik, baxt, baraka timsoli bo'lsa, ba'zi Sharq mamlakatlarida bu rang motam ramzi hisoblanadi. Qora rangi esa o'zbek xalqi



ongida g'am, muammo, sinov, tashvishlarni anglatga, ba'zan ijtimoiy-iqtisodiy kontekstda ham salbiy ma'noda tushuniladi. Buni quyidagi misol tariqasida ko'rishimiz mumkin: o'zbek tilida "qora kun" - og'ir, musibatli davr, "qora niyat" - yomon maqsad, salbiy xulq ko'rinishida semantik jihatdan aks ettirsa, italyan tilidagi frazeologik birliklarda esa ko'proq ijtimoiy yoki iqtisodiy kontekst bilan bog'liq bo'ladi, jumladan, "croneca nera" mazmuniy jihatdan "jinoiyat xronikasi", "umore nero" - "tushkun kayfiyat", "lavoro nero" - "noqonuniy ish" atamalariga teng bo'ladi. Bunday semantik tafovutlar rang komponentli frazeologik birliklarni adekvat tarzda ifodalashni murakkablashtiradi va tarjimondan faqatgina lingvistik bilim emas, balki til va madaniyatni solishtira oladigan lingvokulturologik yondashuvni ham talab qiladi.

Ushbu muammo tarjima nazariyasi va amaliyoti doirasida bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, Gideon Toury tarjima nazariyasida "Descriptive Translation Studies" yondashuvini ilgari surgan, shuningdek, tarjima normativlari va madaniy kontekst ta'sirini tahlil qilgan bo'lsa, Mona Baker o'zining "In Other Words" asarida iboralarni tarjima qilishda ekvivalentlik muammolarini chuqur tadqiq etgan.² Bundan tashqari, Jane Bassnett va Andre Lefevere kabi olimlar tarjima, madaniyat va adabiyotlararo aloqalar yuzasidan izlanishlar olib borishgan. O'zbek tilshunosligida esa N. Hamidov, G. Ubaydullayeva, D. Jo'rayev, G. Yo'ldosheva kabi tadqiqotchilar frazeologik birliklarning tarjimasi, ularning semantik tuzilishi va madaniy asoslari ustida ilmiy izlanishlar olib borganlar. Shuningdek, o'zbek tilidagi rang komponentli iboralarning ma'nolari "O'zbek tilining izohli lug'ati" da ham keng yoritilgan.³ Biroq, rang komponentli iboralarni madaniy moslik nuqtai nazaridan, italyan va o'zbek tillari materiali asosida tizimli va qiyosiy tarzda tahlil qilish masalasi hanuzgacha yetarli darajada chuqur o'rganilmagan.

² Mona Baker. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London: Routledge, 2018.

³ O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent, 2020.

Ushbu tadqiqot natijalaridan ko'rishimiz mumkinki, italyan va o'zbek tilidagi frazeologik birliklar xalq madaniyati, mentaliteti va tarixiy tajribasi bilan bevosita chambarchas bog'liq. Ranglar faqatgina vizual belginigina emas, balki chuqur emotsional va ramziy yuklamaga ega bo'lgan lingvokulturologik birlik shaklida namoyon bo'ladi. "Tarjima - bu shunchaki so'zlarni almashtirish emas, balki bir madaniyatni boshqasiga tushuntirib berish san'atidir. Ranglar esa bu tushuntirish jarayonida eng nozik va ramziy ifodalar hisoblanadi" (P.Newmark yondashuvidan kelib chiqib).

Tahlil qilinishicha, ba'zi ranglar ikkala tilda ham o'xshash semantik maydonga ega. Misol tariqasida keltiradigan bo'lsak, qora rang har ikkala tilda ham salbiy konnotatsiyaga ega. Ba'zi ranglar esa , aksincha, ikkala tilda mutlaqo turlicha assotsiativ ma'nolarni ifodalaydi (masalan, yashil va oq rang bilan bog'liq bo'lgan iboralar). Bu esa o'z navbatida, rang komponentli frazeologik birliklarni tarjima qilishda muayyan qiyinchiliklar tug'diradi.

Bundan tashqari, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, rang nomlari ishtirok etgan frazeologik iboralarni adekvat tarzda ifodalash jarayonida tarjimondan har tomonlama lingvistik bilim, chuqur tafakkur talab etiladi.

O'rganilgan masala yuzasidan quyidagi xulosaviy takliflarni bildirish maqsadga muvofiqdir:

Avvalo, madaniy tafovutlarni to'g'ri anglash hamda tarjima jarayonini biroz yengillashtirish uchun italyan va o'zbek tillaridagi rang komponentli frazeologik birliklar maxsus qiyosiy lug'atini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, tarjimonlarning madaniy kompetensiyasini oshirish va madaniyatlararo muloqotni to'g'ri tashkil etish maqsadida oliy ta'lim muassasalarida nafaqat tarjima , balki lingvokulturologiya fanlari doirasida rang semantikasi masalasi bo'yicha alohida e'tibor qaratilishi lozim. Qolaversa, ilmiy xulosalarni mustahkamlash, yashirin semantik va madaniy qatlamlarni aniqlash, shuningdek,



italyan va o'zbek qiyosiy bazasini boyitish uchun kelgusida ushbu yo'nalishda yanada kengroq empirik materiallar asosida tizimli tadqiqotlar olib borish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mona Baker. *In Other Words: A Coursebook on Translation*. - London: Routledge, 2018
2. Newmark P. *A Textbook of Translation*. - New York: Prentice Hall, 1988.
3. Vinogradov. V. V. *Frazeologiya masalalari*. - Moskva, 1977.
4. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. - Toshkent, 2020.

